

TALABALARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Oriental universiteti, Uzlüksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası

katta o'qituvchisi

Gulbahor Namozova Muzaffarovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda nutq madaniyatini shakllantirishning samarali usullari yoritilgan. Nutq madaniyati — bu shaxsning ogʻzaki va yozma nutq orqali fikrni aniq, toʻgʻri, mantiqiy hamda estetik ifodalash qobiliyatidir. Maqolada nutq madaniyatining mohiyati, uning taʼlim jarayonidagi oʻrni, shuningdek, talabalarda ushbu koʻnikmani shakllantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar, debat va munozara mashgʻulotlari, nutqiy treninglar, adabiyot va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, oʻqituvchi va talabalar oʻrtasidagi samarali muloqot, madaniy muhit yaratish, axborot texnologiyalarini jalb qilish kabi omillar nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida koʻrsatilgan. Tadqiqot natijalari ushbu yoʻnalishda taʼlim sifatini oshirish boʻyicha amaliy tavsiyalarni ham oʻz ichiga oladi.

Kalit soʻzlar: Nutq madaniyati, talabalar, ogʻzaki nutq, yozma nutq, taʼlim jarayoni, interfaol metodlar, muloqot madaniyati, kommunikativ kompetensiya, axborot texnologiyalari.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье освещены эффективные методы формирования речевой культуры у студентов. Культура речи — это способность человека ясно, правильно, логично и эстетически выражать мысль посредством устной и письменной речи. В статье анализируется сущность речевой культуры, ее роль в образовательном процессе, а также возможности использования интерактивных методов, дискуссионно-дискуссионных занятий, речевых тренингов, литературы и средств массовой

информации, служащих формированию у учащихся этого умения. Также в качестве важных факторов развития речевой культуры указываются такие факторы, как эффективное общение учителя с учениками, Создание культурной среды, вовлечение информационных технологий. Результаты исследования также содержат практические рекомендации по повышению качества образования в этом направлении.

Ключевые слова: культура речи, учащиеся, устная речь, письменная речь, образовательный процесс, интерактивные методы, культура общения, коммуникативная компетентность, информационные технологии.

EFFECTIVE METHODS FOR DEVELOPING STUDENTS' SPEECH CULTURE

Abstract: This article highlights effective methods of forming students' speech culture. The culture of speech is the ability of a person to express thoughts clearly, correctly, logically and aesthetically through oral and written speech. The article analyzes the essence of speech culture, its role in the educational process, as well as the possibilities of using interactive methods, discussion classes, speech training, literature and mass media, which serve to form students' skills. Also, such factors as effective communication between teachers and students, the creation of a cultural environment, and the involvement of information technology are indicated as important factors in the development of speech culture. The results of the study also contain practical recommendations for improving the quality of education in this area.

Keywords: culture of speech, students, oral speech, written speech, educational process, interactive methods, culture of communication, communicative competence, information technology.

KIRISH: Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli va muloqotga layoqatli shaxs sifatida shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda nutq madaniyatini rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Nutq madaniyati – bu shaxsning og'zaki va yozma nutqda o'z fikrini aniq,

ravon, mantiqan asoslangan hamda estetik jihatdan boy shaklda ifodalash qobiliyatidir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning nutq madaniyatini shakllantirish ularning kelgusidagi kasbiy faoliyati va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bois ushbu maqolada talabalarda nutq madaniyatini rivojlantirishning samarali usullari, ularning mohiyati va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tanqidiy fikrlash bo'yicha ilmiy ishlar kontseptsiyasini tahlil qilish ushbu tushuncha mohiyatini aniqlash imkonini yaratadi. Umuman olganda, tanqidiy fikrlash mantiqiy dalillar va fikrlash orqali oqilona, maqsadga yo'naltirilgan fikrni anglatadi. Oqilona mulohazalar yaratish uchun axborotni xolisona baholash va baholash uchun tanqidiy fikrlashdan foydalanamiz.

Tanqidiy fikrlash shunchaki aqliy faoliyat emas – u shaxsiy fikrni ifoda etish, muloqotda madaniyatli bo'lish, asosli va ta'sirli gapira olish, turli qarashlarga ochiq bo'lish kabi ko'plab ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Shu bois, uni nutq madaniyatining negizi deb atash mumkin.

Ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sifatida tanqidiy fikrlash tushunchasining ilmiy maydonga kirib kelishi amerikalik faylasuf Jon Duy ismiga bog'lanadi. U tanqidiy fikrlashni ko'proq “aks ettiruvchi fikrlash” (Reflective thinking) deb atagan va uni quyidagicha ta'riflagan: “Har qanday e'tiqod yoki bilimning taxminiy shaklini, uni qo'llab-quvvatlovchi asoslar va u moyil bo'lgan keyingi xulosalar nuqtai nazaridan faol, qat'iyatli va diqqat bilan ko'rib chiqish.” [2, 6]. Bu ta'rif tanqidiy fikrlashni chuqur tafakkur, tahliliy yondashuv va ratsional asosda qaror qabul qilish jarayoni sifatida tushunishga asos yaratadi.

Shuningdek, amerikalik tadqiqotchi D. Kluster fikricha, tanqidiy fikrlash savollar berish va muammolarni aniqlashdan boshlanadi. Fikrlash individual xarakter kasb etgan taqdirdagina tanqidiy bo'lishi mumkin, ya'ni bu jarayon shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Tanqidiy fikr

yuritish yangi yoki mavjud g'oyalarni sinovdan o'tkazish, baholash va amalda qo'llash orqali amalga oshadi [3, 218].

Paul va Elder tomonidan ishlab chiqilgan nazariyada tanqidiy fikrlash – bu argumentlarni tahlil qilish, muammolarni har tomonlama ko'rib chiqish va ratsional qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ular talabalar o'rtasida chuqur savollar berish orqali tanqidiy fikrlashni faollashtirish mumkinligini isbotlaganlar[4].

J.Turdaliyev va S.To'rayev esa tanqidiy fikrlashni quyidagicha tushuntiradi: “Bu – insonning fikrini tizimli va mantiqiy tarzda rivojlantirish, muammolarni tahlil qilish, qaror qabul qilishda mustaqil va ob'ektiv yondashuvni qo'llash qobiliyati.” Ularning ta'kidlashicha, tanqidiy fikrlovchi talaba nafaqat ma'lumotni qabul qiladi, balki uni tahlil qiladi, baholaydi va amaliyotga tatbiq etadi [5, 45].

Mazkur yondashuvlar tanqidiy fikrlashni nafaqat bilish kompetensiyasi, balki muloqot va nutq madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida ko'rishga imkon beradi. Chunki tanqidiy fikrlovchi shaxs: o'z fikrini mantiqiy izchillikda va aniq ifoda etadi; o'zgacha fikrlarga nisbatan ochiq va hurmatli munosabatda bo'ladi; bahs-munozara va ijtimoiy muloqotlarda madaniyatli, asosli va tushunarli tarzda ishtirok etadi.

Demak, tanqidiy fikrlash – bu nafaqat tafakkur faoliyati, balki nutq madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim kognitiv kompetensiyadir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun bu ikki jarayonning uyg'unligi ularning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy muvaffaqiyati uchun zarur poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot ishida talabalar nutq madaniyatini rivojlantirishda tanqidiy fikrlash kompetensiyasining ahamiyatini aniqlash maqsadida sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy materiallar va usullar asosida ish olib borildi: Tadqiqot materiallari sifatida “University of economics and pedagogy” nodavlat oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 2-bosqich boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirokchilari sifatida tanlab

olindi (umumiy soni – 120 nafar). O‘quv rejalari, ta’lim dasturlari hamda “Pedagogik akmeologiya”, “Umumiy pedagogika va psixologiya” fanlari bo‘yicha darsliklar va metodik qo‘llanmalar tahlil qilindi. Talabalarning yozma ishlari, og‘zaki nutq namunalari hamda auditoriyada olib borilgan muhokama, bahs-munozara jarayonlaridan olingan yozuvlar o‘rganildi.

Tadqiqot usullari sifatida so‘rovnoma va intervyu usuli tanlab olinib bu usul orqali talabalarning tanqidiy fikrlash darajasi, nutq madaniyatiga bo‘lgan yondashuvi va o‘z fikrini bayon qilishdagi muammolarini aniqlash maqsadida so‘rovnomalar tashkil etildi. Shuningdek, o‘qituvchilar bilan individual suhbatlar ham olib borildi.

Eksperimental metodda esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazildi va natijalari oldingi ko‘rsatkichlar bilan solishtirildi.

Tahlil va kuzatuv usuli orqali dars jarayonlarida talabalarning ishtiroki, fikr bildirishdagi faolligi, nutqdagi aniqlik, mantiqiylik va madaniy ifoda darajalari muntazam kuzatildi va tahlil qilindi. Statistik tahlilda olingan ma’lumotlar asosida natijalar grafiklar va jadval ko‘rinishida tahlil qilindi. Mazkur usullar orqali nutq madaniyatini rivojlantirishda tanqidiy fikrlashning naqadar muhim omil ekani ilmiy asosda yoritib berildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatdiki, tanqidiy fikrlash kompetensiyasining talabalar nutq madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati juda katta. Tanqidiy fikrlash orqali talabalar o‘z fikrlarini nafaqat aniq, lo‘nda va mantiqan asoslab ifodalay olishadi, balki o‘zaro muloqotda ham madaniyatli va konstruktiv yondashadilar.

Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan eksperimentlar, so‘rovlar va kuzatuvlar natijasida quyidagi muhim xulosalarga erishildi:

Tanqidiy fikrlash va nutq madaniyati o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlik. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talabalarni nafaqat mustaqil fikrlashga, balki o‘z

fikrlarini aniq, asosli va ilmiy jihatdan mantiqan izchil ifodalashga o'rgatadi. Bu esa nutq madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashning kommunikatsion ko'nikmalarga ta'siri. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida talabalar savol berish, tahlil qilish, va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Bu esa muloqotda ularning o'z fikrlarini mustahkam va aniq ifodalashga yordam beradi. Buning natijasida ular jamoada ishlashda, guruh muhokamalarida va o'zaro munosabatlarda yanada samarali bo'ladilar.

Talabalarning nutq madaniyati va ma'lumotlarni baholash qobiliyati. Tadqiqot davomida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazildi va natijada talabalar faqat ma'lumotni qabul qilish bilan cheklanmay, balki uni tahlil qilish, baholash va amaliyotga qo'llashni ham o'rgandilar. Bu hol, nutq madaniyati va muloqotning sifati va mazmunini sezilarli darajada oshirdi.

Pedagogik yondashuvlar va metodlarning ahamiyati. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuvlar va metodlar muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda o'rganilgan metodlar, xususan, guruhli muhokamalar, muammoli vaziyatlar tahlili va savol-javob shaklidagi mashg'ulotlar talabalar nutq madaniyatini yuksaltirishda samarali ekanligi isbotlandi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi talabalar nutq madaniyatini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Tanqidiy fikrlashning rivojlanishi talabalar orasida lo'nda va asosli fikr bildirishi, argumentlarni tahlil qilish va baholash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu ko'nikmalar ularning nutq madaniyatini, muloqotda madaniyatli va izchil bo'lishini yaxshilaydi.

Pedagogik jarayonlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metod va yondashuvlarning samarali qo'llanilishi talabalar nutq madaniyatining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun, oliy ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishni tizimli ravishda davom ettirish zarur. Bu

o'z navbatida, talabalar nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy muloqotda ham yuqori saviyali va madaniyatli ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 08.10.2019-yildagi PF-5847- sonli Farmoni.
2. Dewey John, 1910, "How We Think", Boston: D.C. Heath. [Dewey 1910 available online]
3. Kluster, D. (2005). What is Critical Thinking? Journal of Educational Thought, 41(3), 211-224.
4. Paul, R., & Elder, L. (2014). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life (3rd ed.). Pearson Education.
5. Turdaliyev, J. & To'rayev, S. (2019). Oliy ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 3(2), 45-59.
6. Brookfield, S. D. (2012). Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. San Francisco: Jossey-Bass. ISBN: 978-0-470-88934-3.
7. Ennis, R. H. (1987). A Taxonomy of Critical Thinking Dispositions and Abilities. Teaching Thinking Skills: Theory and Practice. J. B. Baron & R. J. Sternberg (Tahr.), New York: W. H. Freeman and Company, 9-26.
8. Seale, C. (2010). Educational Strategies for Developing Critical Thinking Skills in University Students. Journal of Higher Education Research, 25(3), 245-260.
9. Shakirova, D. M. (2007). Technology for the Shaping of Critical Thinking in Students. Journal of Teaching and Learning, 4(2), 153-161.